XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024 - yil 5 - yanvar VI-101-1-11-169-K/24 Farg‘ona shahar hokimligi

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429, 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-Farmonining 4-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 9 dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llash hamda Farg‘ona shahar Moliya bo‘limining hamda Farg‘ona shahar Davlat soliq inspeksiyasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha Farg‘ona shahar Moliya bo‘limining hamda Farg‘ona shahar Davlat soliq inspeksiyasining 2023-yildagi 18-dekabrdagi 01/0103/344-sonli hamda 01-24440-

sonli qo‘shma taklifi ma’qullansin.

2. Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” miqdorlarini belgilash to‘g‘risidagi VI-101-127-11-169-K/23-son qaror ilovalari Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimi (e-qaror) ga Kengash kotibiyati moderatori (Z.Mansurov)ning texnik xatosi bilan kiritlganligi sababli qaror ilovalariga tegishli tuzatish kiritilsin.

3. Yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2024-yilda 1,12 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

Farg‘ona viloyati uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 55,5 mln.so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 483,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

Kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qaror bilan:

Farg‘ona shahar hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Farg‘ona shahar hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2024-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i

stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (X.Erkaboyev)ga;

1 hafta muddatda ushbu qarorning 1 va 2 ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, joriy yil yakuniga qadar muhokamalar yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini shahar soliq inspeksiyasiga taqdim etsinlar.

6. Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlariga, ushbu qarorning 1 va 2 ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kelgusi yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

7. Farg‘ona shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev);

yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 1-yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

8. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev) tegishli bo‘limlar bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib;

Soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (X.Erkaboyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **V.Nazarov**

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar
Kengashining
2024-yil 5-yanvardagi
VI-101-1-11-169-K/24-son qaroriga
1-ilova

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ерлар учун юридик шахслар бўйича мутлоқ миқдорда белгиланган базавий солиқ ставкасига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

Т/р	Шаҳар ва туман номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2024 йил учун (1 га учун)
1	Фарғона ш	Ойбек	1,70	94 350
2	Фарғона ш	Маърифат	1,70	94 350
3	Фарғона ш	Фурқат	1,70	94 350
4	Фарғона ш	Симтепа	1,70	94 350
5	Фарғона ш	Бахор	1,70	94 350
6	Фарғона ш	Наврўз	1,40	77 700
7	Фарғона ш	Машъал	1,70	94 350
8	Фарғона ш	Ёшлар	1,40	77 700
9	Фарғона ш	Янги йўл	1,40	77 700
10	Фарғона ш	Мирзо Улуғбек	1,40	77 700
11	Фарғона ш	Фарғона	1,40	77 700
12	Фарғона ш	Сой бўйи	1,00	55 500
13	Фарғона ш	С.Темур	1,70	94 350
14	Фарғона ш	А.Навоий	1,70	94 350
15	Фарғона ш	Гулзор	1,70	94 350
16	Фарғона ш	Дўстлик	1,70	94 350
17	Фарғона ш	Ш.Рашидов	1,70	94 350
18	Фарғона ш	Беглар	1,00	55 500
19	Фарғона ш	Қиргули	1,40	77 700
20	Фарғона ш	Совурбулоқ	1,20	66 600

21	Фарғона ш	Жўйдам	1,00	55 500
22	Фарғона ш	Ёрмозор	0,80	44 400
23	Фарғона ш	Ипак йўли	0,70	38 850
24	Фарғона ш	Шодлик	0,70	38 850
25	Фарғона ш	Шаршара	0,70	38 850
26	Фарғона ш	Оқариқ	0,70	38 850
27	Фарғона ш	Шодиёна	1,40	77 700
28	Фарғона ш	Тинчлик	0,70	38 850
29	Фарғона ш	Мустақиллик	0,70	38 850
30	Фарғона ш	Бешбола	1,40	77 700
31	Фарғона ш	Хўжамағиз	0,80	44 400
32	Фарғона ш	Сурхтепа	0,80	44 400
33	Фарғона ш	Нафосат	1,20	66 600
34	Фарғона ш	Сохибкор	0,70	38 850
35	Фарғона ш	Афросиёб	1,20	66 600
36	Фарғона ш	Ўрмончилар	1,40	77 700
37	Фарғона ш	Оқариқобод	0,70	38 850
38	Фарғона ш	Янгисой	1,20	66 600
39	Фарғона ш	Гулистон	1,00	55 500
40	Фарғона ш	Бўстон	1,20	66 600
41	Фарғона ш	Истиқлол	0,80	44 400
42	Фарғона ш	Бобур	1,00	55 500
43	Фарғона ш	А.Қодирий	1,00	55 500
44	Фарғона ш	Лолазор	0,70	38 850
45	Фарғона ш	Ал-Хоразмий	0,80	44 400
46	Фарғона ш	А.Жомий	0,70	38 850
47	Фарғона ш	Ўзбекистон	0,70	38 850
48	Фарғона ш	Мададкор	1,00	55 500
49	Фарғона ш	Тўқимачилар	0,80	44 400
50	Фарғона ш	Зарбдор	1,20	66 600

51	Фарғона ш	1-Бешбола	1,00	55 500
52	Фарғона ш	Ибн Сино	0,80	44 400
53	Фарғона ш	Маданият	0,80	44 400
54	Фарғона ш	Истиқбол	0,80	44 400
55	Фарғона ш	Баркамол	0,80	44 400
56	Фарғона ш	Кимёгар	0,80	44 400
57	Фарғона ш	Мехрибонлик	1,00	55 500
58	Фарғона ш	Хувайдо	0,70	38 850
59	Фарғона ш	Навбохор	1,00	55 500
60	Фарғона ш	Юлдуз	1,00	55 500
61	Фарғона ш	Беруний	1,00	55 500
62	Фарғона ш	Табассум	1,20	66 600
63	Фарғона ш	Хамкорлик	0,70	38 850
64	Фарғона ш	Мурувват	0,70	38 850
65	Фарғона ш	Ал-Фарғоний	1,20	66 600
66	Фарғона ш	Ибрат	1,20	66 600
67	Фарғона ш	Нодирабегим	1,20	66 600
68	Фарғона ш	Парвоз	1,00	55 500
69	Фарғона ш	Ифтихор	1,00	55 500
70	Фарғона ш	Шакарқишлоқ	1,20	66 600
71	Фарғона ш	Ўрта шўра	0,80	44 400
72	Фарғона ш	Илғор	0,80	44 400
73	Фарғона ш	Чек-шўра	0,80	44 400

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar
Kengashining
2024-yil 5-yanvardagi
VI-101-1-11-169-K/24-son qaroriga
2-ilova

Жисмоний шахслар бўйича (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган қишлоқ хўжалигига мўлжаллаган ерлардан ташқари) мутлоқ миқдорда 1 кв.м. учун белгиланган базавий солиқ ставкаларига нисбатан киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

Т/р	Шаҳар ва туман номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2024 йил учун (1 кв учун)
1	Фарғона ш	Ойбек	1,32	638,0
2	Фарғона ш	Маърифат	1,32	638,0
3	Фарғона ш	Фурқат	1,21	584,0
4	Фарғона ш	Симтепа	1,21	584,0
5	Фарғона ш	Бахор	1,21	584,0
6	Фарғона ш	Наврўз	1,21	584,0
7	Фарғона ш	Машъал	1,21	584,0
8	Фарғона ш	Ёшлар	1,21	584,0
9	Фарғона ш	Янги йўл	1,11	536,0
10	Фарғона ш	Мирзо Улуғбек	1,11	536,0
11	Фарғона ш	Фарғона	1,11	536,0
12	Фарғона ш	Сой бўйи	1,11	536,0
13	Фарғона ш	С.Темур	1,11	536,0
14	Фарғона ш	А.Навоий	1,11	536,0
15	Фарғона ш	Гулзор	1,11	536,0
16	Фарғона ш	Дўстлик	1,11	536,0
17	Фарғона ш	Ш.Рашидов	1,11	536,0
18	Фарғона ш	Беглар	0,91	440,0
19	Фарғона ш	Қиргули	0,91	440,0
20	Фарғона ш	Совурбулоқ	0,91	440,0

21	Фарғона ш	Жўйдам	0,91	440,0
22	Фарғона ш	Ёрмозор	0,91	440,0
23	Фарғона ш	Ипак йўли	0,91	440,0
24	Фарғона ш	Шодлик	0,91	440,0
25	Фарғона ш	Шаршара	0,91	440,0
26	Фарғона ш	Оқариқ	0,91	440,0
27	Фарғона ш	Шодиёна	0,91	440,0
28	Фарғона ш	Тинчлик	0,81	391,0
29	Фарғона ш	Мустақиллик	0,81	391,0
30	Фарғона ш	Бешбола	0,81	391,0
31	Фарғона ш	Хўжамағиз	0,81	391,0
32	Фарғона ш	Сурхтепа	0,81	391,0
33	Фарғона ш	Нафосат	0,81	391,0
34	Фарғона ш	Сохибкор	0,81	391,0
35	Фарғона ш	Афросиёб	0,81	391,0
36	Фарғона ш	Ўрмончилар	0,81	391,0
37	Фарғона ш	Оқариқобод	0,71	343,0
38	Фарғона ш	Янгисой	1,02	493,0
39	Фарғона ш	Гулистон	1,02	493,0
40	Фарғона ш	Бўстон	1,02	493,0
41	Фарғона ш	Истиқлол	1,02	493,0
42	Фарғона ш	Бобур	1,02	493,0
43	Фарғона ш	А.Қодирий	1,02	493,0
44	Фарғона ш	Лолазор	1,02	493,0
45	Фарғона ш	Ал-Хоразмий	1,02	493,0
46	Фарғона ш	А.Жомий	1,02	493,0
47	Фарғона ш	Ўзбекистон	1,02	493,0
48	Фарғона ш	Мададкор	1,02	493,0
49	Фарғона ш	Тўқимачилар	1,02	493,0
50	Фарғона ш	Зарбдор	1,02	493,0
51	Фарғона ш	Кичик Бешбола	1,02	493,0
52	Фарғона ш	Ибн Сино	1,02	493,0

53	Фарғона ш	Маданият	1,02	493,0
54	Фарғона ш	Истиқбол	1,02	493,0
55	Фарғона ш	Баркамол	1,02	493,0
56	Фарғона ш	Кимёгар	1,02	493,0
57	Фарғона ш	Мехрибонлик	1,02	493,0
58	Фарғона ш	Хувайдо	1,02	493,0
59	Фарғона ш	Навбохор	1,02	493,0
60	Фарғона ш	Юлдуз	1,02	493,0
61	Фарғона ш	Беруний	1,02	493,0
62	Фарғона ш	Табассум	1,02	493,0
63	Фарғона ш	Хамкорлик	1,02	493,0
64	Фарғона ш	Мурувват	1,02	493,0
65	Фарғона ш	Ал-Фарғоний	1,02	493,0
66	Фарғона ш	Ибрат	1,02	493,0
67	Фарғона ш	Нодирабегим	1,02	493,0
68	Фарғона ш	Парвоз	1,02	493,0
69	Фарғона ш	Ифтихор	1,02	493,0
70	Фарғона ш	Шакарқишлоқ	1,02	493,0
71	Фарғона ш	Ўрта шўра	0,81	391,0
72	Фарғона ш	Илғор	0,81	391,0
73	Фарғона ш	Чек-шўра	0,81	391,0